

“XAZOYIN UL-MAONIY”DA LAYLI OBRAZI

Kamola ULUG‘MURODOVA

Profi University Navoiy filiali, f.f.f.d (PhD)

kamolamurodullayevna@gmail.com

Tel: (97) 228-36-32

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804378>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” to‘plamida qo‘llangan Layli obrazining badiiyati, mazmun-mohiyati va shakllariga e‘tibor qaratilgan. Bu o‘rinda Layli obrazi shoir baytlari misolida sharhlanib, izohlari qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: bayt, obraz, timsol, ishq, tasavvuf, Layli, Majnun.

Abstract: This article focuses on the artistry, content, and forms of the image of Layla used in Alisher Navoi's collection "Khazoyin ul-maoniy". Here, the image of Layla is interpreted using the poet's verses as an example, and his comments are noted.

Keywords: verse, image, image, love, mysticism, Layla, Majnun.

Аннотация: В данной статье рассматриваются художественность, сущность и формы образа Лейли, использованного в сборнике Алишера Навои «Хазоин ул-маани». В этом месте образ Лайли трактуется как образец стихов поэта, отмечаются его комментарии.

Ключевые слова: стих, образ, символ, любовь, мистика, Лейли, Меджнун.

Adabiyotshunoslik sohasida obraz masalasini har tomonlama mufassal o‘rganish, ularning mazmun-mohiyati va shakllarini keng maydonda talqin etish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki “badiiy obraz adabiyotning hayot haqiqatlarini jonli va ta’sirchan tarzda aks ettiruvchi o‘ziga xos kategoriyasidir. Obraz tabiatini, eng avvalo, adabiy matnning mazmuni, tasvir yo‘li va ifoda usuli belgilaydi. Muayyan matn tarkibi, uning mavzu ko‘lami, ma’no qamrovi, estetik ta’sir quvvati, badiiy obrazning imkoniyatlariga ham u yoki bu darajada daxldor bo‘ladi, albatta. Shoir o‘z-o‘zicha istalgan so‘z yoki gapni obrazga solavermaydi” [2,3]. Bu borada shoirdan katta mahorat talab qilinadi. Chunki “Bunda u mavjud voqelik, unda yashab turgan insonlar qarashi va ma’naviy qiziqishlariga suyanadi” [3,127]. Darhaqiqat, Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiy faoliyati mazkur qarashlarni tasdiqlaydi. Chunki shoirning teran mushohadalari hamda u tanlagan har bir obrazning badiiy qimmati bu borada fikrimizga asos bo‘la oladi.

Navoiy yaratgan obrazlarni lirik janr asosida ko‘radigan bo‘lsak, ularning har birida shoirning yuksak mahorati ko‘zga tashlanadi. Ta’kidlash joizki, nazmni nasrdan ustun bilgan Navoiy lirik janr badiiyatini oshirishga xizmat qiladigan bir qancha obrazlarni yaratadi. Jumladan, tarixiy obrazlar: Iskandar, Husayn Boyqaro;

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

mifologik obrazlar: Kayumars, Jamshid; an'anaviy obrazlar Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Vomiq, Uzro kabilar shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy ijodida an'anaviy obrazlarga ko'p marotaba murojaat etgan. Xususan, "Layli va Majnun" dostonida Layli obrazini real, hayotiyligini to'laqonli tasvirlab, o'sha davr ijtimoiy muhitini yoritgan [4,52], shuningdek, ilohiy mazhar [1,246] sifatida talqin etgan bo'lsa, lirikasida mazkur obrazning boshqa sifatlarini ko'rsatib o'tadi. Ya'ni shoir she'riyatida Layli obrazi Yaratganning yerdagi tajalliysi, ilohiyotning mazhari, bemisl go'zallik sohibasi, Majnunning vafodor ma'shuqasi va shoir lirik qahramonining sevgilisiga muqoyasa qilingan hollarda qo'llanilgan [1,246]. Bundan tashqari, mazkur obrazning "Layli va Majnun" nomli doston va qissalar nomiga ishora qilgan holatlari ham ko'zga tashlanadi.

Shoir devonlarida Layli timsolining Majnunga suyuqli yor ma'nosi ko'p o'rinda ko'zga tashlandi.

*Chaman Laylosidan ayru degaysen lola Majnundur,
Ki, gardun jola toshidin qonatmish dog'i hijronin.*

(G'aroyib us-sig'ar, 440-g'azal)

Mazkur misralarda shoir obrazlar vositasida betakror tabiat manzarasini chizgan. Ma'lumki, alvon rangli lola-qizg'aldoq nihoyatda nafis. U borliq injiqliklariga dosh berolmaydigan, ayniqsa, kuchli shamol, yomg'ir-u do'llarga zarracha qarshilik ko'rsatolmaydigan nozik gul. Shuning uchun uning qadri baland va u noyob sanaladi. Navoiy Yaratganning ushbu mo'jizasi taqdirini timsollar misolida ta'sirchan tasvirlagan. Shoir nazdida Layli go'yo bir chaman. Uning bag'rida turfa gullar mujassam. Majnuni solik shu chamanning lolasi. U o'zi istamagan holda sevimli chamanidan ayro tushgan. Bu ham yetmagandek, falakning ayovsiz yomg'ir-u do'llari taniga ozor yetkazgan. Ayriliq azoblari bag'rini tilib, hijron dog'lari tanini qonatgan. Shunday bo'lsa-da, Majnun uchun bu uqubatlar fojia emas. Chunki bu azoblarning ortida Majnunning Layliga nisbatan haqiqiy muhabbati yashiringan.

Shuningdek, shoir she'riyatida Layli obrazi betakror *tashbehtar*, go'zal ifodalar shaklida ham namoyon bo'ladi.

*Shox Majnundurki, uryon bo'lubon afg'on qilur,
Barg Laylodurki, nilu igna bilan qazdi xol.*

(G'aroyib us-sig'ar, 386-g'azal)

Ushbu misralar Navoiyning yuksak shoirlik mahoratidan dalolat beradi. Unda shoir Majnunni daraxt shoxiga, Laylini shu shoxning barglariga qiyoslaydi. Layli daraxt shoxlarida kurtak ochib barg yozar ekan, igna misol nashtarlari xol qazib tugunchalar hosil qiladi. Bu Majnunning bag'rini tilkalab, nola-yu faryod chekishiga sabab bo'ladi. Bu o'rinda "Layli va Majnun shunchalar bir-biriga yaqinki, ularni bir

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

daraxt tanasidek tasavvur qilish mumkin. Shox Majnun bo'lsa, barg – Layli. Bunda shoirning daraxt shoxining tebranishi, barglarning yerga to'kilish manzaralariga ham yuqori badiiy tus bergani namoyon bo'ladi" [6,18]. Darhaqiqat, ushbu bayt har bahor tabiatda sodir bo'ladigan tabiiy manzarani, ya'ni daraxtlarning kurtak ochib, barg yozishlarini ko'z o'ngimizda jonlantirishi bilan *tashbeh* she'riy san'atini yuzaga keltirgan. Navoiyning *tashbeh* qo'llash borasidagi badiiy mahorati quyidagi bayt misolida ham aniq aks etgan.

Sarvdek uksuni axzar birla Layli qaddidur

Tokdek yuz xam bila Majnuni uryon qomati.

(Badoyi' ul-vasat, 640-g'azal)

Mazkur baytda shoir tasavvurida Layli ko'm-ko'k sarv daraxti singari tik qomatga ega, ko'zni quvontiradigan go'zal yor, Majnun esa uning ishqida g'am-alam chekishi natijasida qaddi tok navdalari singari yuz bora egilgan, bukilgan oshiq qiyofasida tasvirlangan. "Layli qaddi sarvga (an'anaviy tashbeh), Majnun qomati tok (shoirlarga xos tashbeh) daraxtiga o'xshatilgan. Sarvning osmon uzra tik o'sishi, tokning yer yuzasida egri-bugri bo'lib yotishi Layli va Majnun tashqi va ichki holatiga mos o'xshatish bo'ladi. Bu esa o'quvchida aniq tasavvur uyg'otadi" [6,10]. Bu o'rinda biz Layli timsoli orqali go'zallikda tengsiz o'zbek qizlari qiyofasini ko'ra olamiz. Bundan tashqari:

Majnun boshini sajdadin olmas edi aslo,

Gar Layli itining julidin topsa musallo.

(Badoyi' ul-vasat, 32-g'azal).

Mazkur baytda qo'llangan har bir obraz epik asarlardagi kabi yuksak mahorat bilan ishlangan. Navoiy unda tilga olingan har bir obrazga muayyan badiiy ijtimoiy "vazifa" yuklagan. Aslini olganda, shoir mazkur bayt orqali "Layli va Majnun" dostonining kulminatsion nuqtasi darajasiga yetgan 14-bob voqealariga ishora qilgan. Unda tasvirlangan it obrazi bu jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, it sadoqat, do'stlik, vafodorlik ramzi sanalib, dostonida uning bu sifatlari aniq dalillar asosida ko'rsatib o'tilgan. U ham Majnun kabi oshiq, yorining oyog'i ostida yotib o'z vafodorligini, sadoqatini namoyon qiladi [1,252]. Buning mohiyatini anglagan Majnun o'zini Layliga sadoqat borasida ulkan iltifot ko'rsatgan it oldida notavon ekanligini his qiladi. Chunki it Laylini ko'rganda Majnun kabi hushini yo'qotmaydi uning oyoqlariga suyaklab, erkalanadi – itning bardoshi kuchli, bu esa Majnun yeta olmas armoni [1]. Majnun shu kabi og'ir dardlaridan xalos bo'lish maqsadida Layli itidan najot izlaydi. Majnun tasavvurida itning har bir tukida Layli nafasi ufurgan, uning oyoqlari tagida Laylining pok qadamlari izi qolgan. Hatto itning ruhsiz tanasi ham Majnun uchun juda qadrlil. Shu bois u bir umr shu vafodor

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

oshiqning jonsiz tani ustida sajdadan boshini olmay turishga rozi. Shuningdek, devondagi 144-g'azalning yettinchi baytida Navoiy bu obrazlarga yana murojaat qilib, badiiylilikni oshirib borgan.

Meni Majnun tanin tirnog'larning zaxmidin ko'rgan

Degay Layli iti har yon qo'tur jismini qoshibdur.

(Badoyi' ul-vasat, 144-g'azal)

Shoir bunda Majnunning o'z jismiga o'zi zarar yetkazib, tirnoqlari bilan tirnab, yarador qilgan holatini butun badaniga qo'tir bosgan Laylining iti oldida hech narsa emasligini hamda Majnun shu itning taniga ozor bermasdan avaylab siypalash holatini mahorat bilan tasvirlagan. Layli visoliga yeta olmagan Majnun hech bo'lmaganda uning vafodor itiga iltifot ko'rsatish orqali ko'ngliga taskin topganday bo'ladi.

Gar tutub Layli otin, Majnun qilur ermish fig'on,

Andin ermishkim, junun oyinig'a mansub emish.

(Favoyid ul-kibar, 245-g'azal,)

Mazkur misralarda shoir Majnunning ruhiy holatini o'ta ta'sirli tasvirlagan. Tug'ilganidayoq taqdiriga "Ishq" qismati yozilgan Majnun Layli nomini tilidan qo'ymay, nola-yu fig'on qiladi. Atrofdagilar esa unga "junun" – aqldan ozgan shaxs deya nisbat beradi. "Qaysning oshiqlik dardiga giriftorligi, yuz balo-ofatlarga duchor bo'lishi, "Majnun" – jinni nomini olib, malomatlarga qolishi unga taqdiri azaldir. Uning loyi ishq olovi bilan qorilgan. G'am xayli, Balo, Dard, Firoq uning doimiy hamrohi, chunki oshiqlik Yor vasliga yetish shunday uqubatlarni boshdan kechirish bilan vobasta" [5,77] Chunki "Ishq Navoiy nazdida pokbozlikdir. Ya'ni: pok ko'zni pok nazar bilan pok yuzga solmoqlikdir va pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'almoq va pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz Mahbubu haqiqiy jamolidin bahra olmoq" demakdir. Shunday ishqning adabiyotda tasvirlanishini Navoiy "haqiqat asrorini majoz tariqi bila" kuylash deb ta'riflaydi. Bunda Majnun – Haq jazbasi tekkan, Haq jamolini kuchli shavq bilan sog'ingan solik timsoli bo'lsa, Layli ilohiy tajalliyot nuri porlagan o'sha mazhardir [5,71].

Xulosa qilib aytish joizki, Navoiy she'riyatida qo'llangan mazkur obraz o'zining badiiy mazmun-mohiyati bilan an'anaviylik kasb eta olgan. Qolaversa, "Xazoyin ul-maoniy"da qo'llangan Layli obrazlari bir butunlik hosil qilib, Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi voqealar tasavvurini uyg'otadi. Bu esa Navoiyning yuksak mahoratini asoslaydi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. Алишер Навоий: қомусий луғат. I жилд. – Тоқент: Шарқ, 2016. – 246 б.
2. Asadov M. Navoiy qit'alarida timsol va ma'no uyg'unligi. // Maqola. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent: 2023.1- son. – 3 b.
3. Ҳаққулов И. Занжирбанд шер қошида. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 127 б.
4. Ғаниева С. Алишер Навоий. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Ғанлар академияси нашриёти, 1962. – 52 б.
5. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – 77 b.
6. Sanaqulov U. Alisher Navoiy she'riyatida Layli va Majnun timsollari talqini. Filol.fan.b. fals.dok. diss... avtoref. – Samarqand, 2024. – 10 b.